

## TARBIYASI QIYIN O‘SMIRLAR MUAMMOSIGA E‘TIBORNI KUCHAYTIRISHNING PSIXOPROFILAKTIK MEKANIZMLARI

**Qodirov Obid Safarovich**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*“Psixologiya” kafedrasini mudiri Psixologiya fanlari*

*bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashning psixoprofilaktik mexanizmlari xos qonuniyatlar, yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan ba’zi bir qiyinchilik va kamchiliklarning ijtimoiy psixologik sabablari, barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy- madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta’siri haqida fikr bildirilgan. So‘nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy) global o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yosh avlodning, ayniqsa, o‘smirlarning xulqiga ko‘proq ta’sir qilib, turli o‘zgarishlarga sabab bo‘lib ular ma’naviy bo‘shliq hosil bo‘lishiga olib keldi.*

**Tayanch so‘zlar:** *psixika, aql-idrok, intellektual salohiyat, aqliy taraqqiyot, o‘z-o‘zini anglash, turmush tarzi, salbiy o‘zgarishlar, hamkor tarbiya, etnopsixika, psixoprofilaktika.*

## ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ВНИМАНИЯ К ПРОБЛЕМЕ ПОДРОСТКОВ С ТРУДНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ

**Аннотация:** *В статье рассматриваются психопрофилактические механизмы работы с трудно обучаемыми подростками, конкретные закономерности, социально-психологические причины некоторых трудностей и недостатков в воспитании молодежи, воспитательное влияние социокультурных и национально-психологических факторов в образовании всесторонне развитой молодежи. В последние годы во всех сферах жизни общества (экономической, политической, духовной) стали происходить глобальные изменения. В этот бурно развивающийся период оно оказало большее влияние на поведение молодого поколения, особенно подростков, вызывая различные изменения и приводя к формированию в них духовного разрыва.*

**Ключевые слова:** *психика, интеллект, интеллектуальный потенциал, психическое развитие, самосознание, образ жизни, негативные изменения, совместное обучение, этнопсихика, психопрофилактика.*

## PSYCHOPROFILAKTICHESKIE MECHANIZMY POVYSHENIYA VNIMANIYA K PROBLEME PODROSTKOV S TRUDNYM OBRAZOVANIEM

**Abstract:** *In this article, psychoprophylactic mechanisms of working with difficult-to-educate adolescents, specific laws, socio-psychological reasons for some difficulties and shortcomings in the education of young people, the educational influence of socio-cultural and national-psychological*

*factors in the education of well-rounded young people are expressed. In recent years, global changes have begun to take place in all spheres of society (economic, political, spiritual). In this rapidly developing period, it had a greater impact on the behavior of the young generation, especially teenagers, and caused various changes, leading to the formation of a spiritual gap in them.*

**Key words:** *psyche, intelligence intellectual potential, mental development, self-awareness, lifestyle, negative changes, co-education, ethnopsychiatry, psychoprophylaxis.*

Hozirgi davrda o‘smirlarni voyaga yetkazishning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, hatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta‘limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va ma‘naviy dunyosini boyitish, intel-lektual salohiyatini oshirish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Aksariyat yoshlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishyapti. Shu bois ham ular orasida jannatmakon yurtimiz dovrug‘ini olamga yoyayotgan iqtidorli, iste‘dodlilari ko‘p. Biz bundan faxrlanamiz. Biroq;... Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, hayotda o‘z yo‘lini topa olmagan va buning natijasida bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolganlari ham bor. Ular yoshlikning jo‘shqinligini, kuch-g‘ayratini nomaqbul ishlarga sarflamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, «bitta bo‘lsa ham jinoyat bo‘lgani xammamizni tashvishga solishi kerak». Eng achinarlisi shuki, ushbu jinoyatlarning aksariyati yoshlar tomonidan sodir etilgan. Bu esa, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi borasida hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Zero, buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan so‘zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yuqotgani yo‘q.

Turg‘unlik yillaridagi “so‘z bilan ishning nomuvofiqligi”, axloq tarbiyasidagi qo‘pol xatolar o‘smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi ham g‘oyat jiddiy tus oldi. O‘smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta‘silarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il-qizlarga alohida e‘tibor berish zarur.

O‘smirlar muammosiga e‘tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari: 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san‘at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotgani; 2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o‘smirlar ongliligi darajasining ko‘tarilgani; 3) o‘g‘il va qizlarning dunyo voqyealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi; 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani; 5) o‘smirlar bilan ishlashda g‘oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi; 6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani; 7) o‘quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o‘zini o‘zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o‘quvchi bilan o‘qituvchining muloqotida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat‘iy o‘zgarishlar vujudga keladi. Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug‘iladi. Bular avvalo ta‘lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot, ma‘lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. O‘qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma‘ruza shaklida olib borilishi o‘quvchilarni zeriktiradi, ularda o‘qishga loqaydlik tug‘iladi. Ilgari o‘quv materialini ma‘nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o‘smir endi zarur o‘rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan holda o‘zlashtirishga harakat qiladi, o‘zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasida anglashilmovchilik paydo bo‘ladi, tahsil oluvchi unga qarshilik ko‘rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o‘smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo‘pol, serzarda bo‘lib qoladi. Kattalarning yo‘l-yo‘riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o‘smir ularga tanqidiy munosabatda bo‘ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko‘rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo‘lishi kerak. O‘smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o‘qituvchining qayg‘urishi, koyishiga qaramay, o‘zining fikrini o‘tqazishga harakat qiladi. Uning o‘z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma‘lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo‘lib qoladi. Serzardalik kundalik hatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O‘smir xulqidagi bunday o‘zgarishlar tajribasiz o‘qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o‘quvchiga munosabatini o‘zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o‘smirlik davri inqirozi to‘g‘risida kuyinib gapiradilar, ba‘zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o‘smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo‘l qo‘yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Bu masalaga to‘g‘ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o‘smirlik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko‘ra, kattalar bilan o‘smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to‘g‘riroq bo‘ladi, deb xulosa chiqarilgan.

Xo‘sh, o‘smirning psixik o‘rishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O‘smirning psixik o‘rishini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirganligi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo‘lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o‘rtasida sodir bo‘ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni, psixologik kamolotni ta‘minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarini tarkib toptirish bilan asta-sekin yo‘qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko‘tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o‘smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, obyektlar o‘rtasidagi ichki munosabatlarni o‘rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, o‘zini o‘zi nazorat qilish, baholash, anglash singapi xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o‘smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o‘z mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go‘yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo‘lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Sobiq sovet psixologlari Z.Freyd nazariyasining mutlaqo asossizligini ta‘kidlab, o‘smirda imkoniyat bilan talabchanlik o‘rtasidagi kelishmovchilik, o‘zini ko‘rsatishga moyillik va o‘z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanishini asoslab berdilar.

Ayrim psixologlar biogenetik o‘shning biologik omillariga, ya‘ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o‘smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi subyektiv ichki kechinmalari o‘g‘il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar emish. O‘smir uchun xarakterli norozilik, qo‘pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg‘ular, mayllar, kechinmalar o‘smir hatti-harakatida hukmron bo‘lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmogda. O‘smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog‘liq emasligi hammaga ayondir.

Amerikalik psixolog R.Kulen o‘smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o‘smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degan g‘oyani ilgari suradi. Ammo noto‘g‘ri nuqtai nazardan o‘smirlikni biologik va psixologik kategoriyadan tashqari deb hisoblaydi. R.Kulenning fikricha, o‘smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjud bo‘lib, ular emansipasiya (kattalar ta‘siridan qutulish) va mustaqillikka erishish, hayot yo‘li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo‘lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o‘zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e‘tibor bermas ekan, o‘smirlik davri qancha bo‘lishidan qat‘i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R.Kulen o‘z nazariyasida biologik omillarni ham, o‘smirlik davridagi o‘shning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixologlarning fikricha, o‘smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o‘shning bio-logik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqqimiz yo‘q. Shuningdek, o‘smirlik davrining muayyan hych o‘zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O‘smirlar o‘rtasidagi o‘ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta‘siri bilan, ta‘lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, o‘smirning jismoniy o‘shisi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va ma‘naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini oshirish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirib kelinmogda. Aksariyat yoshlar yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishyapti. Shu bois ham ular orasida jannatmakon yurtimiz dovruq‘ini olamga yoyayotgan iqtidorli, iste‘dodlilari judayam ko‘p. Biz bundan faxrlanamiz. Biroq “guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek”, hayotda o‘z yo‘lini topa olmagan, natijada bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotgan tarbiyasi qiyin o‘smirlarni uchratish mumkin. Ular yoshlikning jo‘shqinligini, kuch-g‘ayratini nomaqbul ishlarga sarflamogda.

Hozirgi maktab ta‘limining bosh vazifasi o‘quvchilarning fan asoslarini faol va ongli o‘zlashtirishini ta‘minlashdan iborat. O‘zlashtirish hamisha faol aqliy jarayon natijasi bo‘lib, odamning bilishga oid olamdagi xilma-xil noma‘lum narsa va hodisalar mohiyatini anglash bilan belgilanadi.

Psixologiya fani nuqtai nazaridan no‘malum narsa va hodisalar mohiyatini anglash, bilish yoki uni ijodiy o‘zlashtirish jarayoni asosan uchta yo‘nalishga bog‘liq bo‘ladi.

Birinchidan, o‘zlashtirilayotgan materialning mazmun-mohiyati o‘zlashtiruvchi uchun qay darajada mos va tushunarligiga, ahamiyatligiga va u qanday usulda yetkazilayotganligiga bog‘liqdir.

Ikkinchidan, ta‘lim jarayonini boshqarayotgan mas‘ul kishining shu sohadagi bilimi va tajribasiga, malaka va mahoratiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog‘liq.

Uchinchidan, o‘quvchining aqliy taraqqiyoti darajasiga, emotsional-irodaviy holatiga, o‘qishga nisbatan unda qaror topgan individual psixologik xususiyatlariga, qiziqishi va havaslariga bog‘liqdir. Ana shu uchta yo‘nalish to‘la ta‘minlangan ta‘lim jarayonidagina samarali o‘zlashtirish hosil bo‘lishi allaqachonlar isbotlangan. Shu bois mamlakatimiz istiqolining dastlabki kunlaridanoq buyuk ma‘naviyatimizni tiklashga, milliy ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlab, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuniga binoan, ta‘lim tizimida Davlat ta‘lim standartlarining ishlab chiqilishi va uning tarkibiy qismi sifatida o‘quv dasturi va darsliklarning tayyorlanishi hamda ularning amalda joriy etilishi ta‘lim tizimini jahon andozalariga xos takomillashtirishning dastlabki bosqichi bo‘ldi. Biroq ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan fidoyi insonlar va o‘qituvchilar jamoasi har qancha urinmasin, baribir ta‘lim jarayonida tarbiyasi qiyin o‘smirlarning uchrab turishi hammani ajablantiradi.

Ana shunday tarbiyaviy muammolarni hal etishning qanday yo‘llari va choralari mavjud? Hozirgi kunda psixologik olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha tarbiyasi qiyin, injiq, o‘zi bilganicha ish tutadigan, quloqsiz, xulqida salbiy illat va ko‘rinishlar oshkor ifodalanib turadigan bolalarning kelib chiqishida ijtimoiy sabablardan tashqari pedagogik, psixologik, iqtisodiy, etnomadaniy va hududiy sabablarning ham muhim ta‘siri borligi isbotlandi. Ana shu muammolarni o‘rganish borasida olib borayotgan tadqiqotlarimiz natijalarining tahliliga ko‘ra o‘smirlar tarbiyasida, xulq-atvorida, munosabatlarida, maqsad-intilishlarida nojo‘ya xatti-harakatlar paydo bo‘lishining sabablari va motivlari (turtkilari) har xilligi aniqlandi. Jumladan, shaxsning biologik o‘shidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o‘qishga salbiy ta‘sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentning shakllanishidagi qusurlar ham tarbiyasi qiyinlikka olib kelishi mumkin. Shaxsning psixik o‘shidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo‘shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o‘smirning intilishiga xos mavjud imkoniyati o‘rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi.

Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar:

- axloqiy hislarning yetishmasligi,
- o‘qituvchi, sinf jamoalari, oila a‘zolari bilan noto‘g‘ri muloqot,
- ishyoqmaslik, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlamaslik ham salbiy qiliqlarni vujudga kelishiga asos bo‘ladi.

Shaxsning bilim, o‘quv faoliyatidagi kamchiliklari:

- aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhimi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

maktab faoliyatidagi kamchiliklar:

- o‘qitishdagi nuqsonlar,

- tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.

Maktabdan tashqari muhitning ta’siridagi kamchiliklar, xususan,

- oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi,
- oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va noaxloqiy hayotga berilishi
- balog‘atga yetmagan tengqurlarining ta’siri,

• madaniy-ma’rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o‘smirlar ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

So‘nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida (iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy) global o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yosh avlodning, ayniqsa, o‘smirlarning xulqiga ko‘proq ta’sir qilib, turli o‘zgarishlarga sabab bo‘lib ularda ma’naviy bo‘shliq hosil bo‘lishiga olib keldi. Buning uchun:

–o‘smirlarni zamonaviy kasbiy yo‘nalishlar, boshqalarga zarari tegmaydigan, biroq foydali bo‘lgan qiziqarli mashg‘ulotlar bo‘yicha xabardorligini oshirish maqsadida umumta’lim maktablari, mahallalarda uchrashuvlar, davra suhbatlari o‘tkazish;

–aynan shu toifadagi bolalarda entuziazm kuchli ekanini inobatga olgan holda ularni ixtiyoriy ravishda “keksalarga yordam”, “nogironligi bo‘lgan farzandi bor oilalarga ko‘mak” aksiyalariga jalb qilish;

–o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini oqilona tashkillashtirish yuzasidan maqsadli yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Ma’lumki, yoshlarning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, xuquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug‘ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o‘zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. Tarbiyasi og‘ir bolalar va o‘smirlarni e’tibor, g‘amxo‘rlik orqali tarbiyalash kelgusida ularning hayotga muvaffaqiyatli moslashishida muhim o‘rin tutadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”. Qonunchilik palatasi tomonidan 2010 yil 12 avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2010 yil 28 avgustda ma’qullangan.// Qalqon. 2010. № 10 B- 2-13.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 80 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-son, 426-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. - 6 (766)-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. // www.uza.uz

6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B.254.

7. Karimova V.M. Yoshlarda o‘zbek oilasi to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
8. Qodirov O.S. “O‘smirlarda (II-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2020, - 155 b.
9. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // Qonun himoyasida. 2001, I- son, 23-26- b.
10. Feldshteyn D.I. “Общие вопросы образования” Образование и наука. 2013. № 9 (108).
11. Safarovich Q.O. et al. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish masalalari // PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.